

## **2018 yil davomida Bank foydasini taqsimlash**

**“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishining 2018 yil 7 iyundagi 46-sonli bayonnomaga qarori bilan Bankning 2017 yilda olgan foydasini taqsimlash (yig‘ilish kun tartibidagi 4-masala) yuzasidan quyidagi qarorlar qabul qilindi:**

- “Standart” sifatida tasniflangan kreditlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxiralarini shakllantirishga - 2 797 775,0 ming so‘m;
- 2017 yil uchun imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlarni to‘lashga 3 450,0 ming so‘m yo‘naltirilsin;
- 2017 yil uchun oddiy aksiyalar bo‘yicha dividendlar e’lon qilinmasin.

53 368 758,2 ming so‘m miqdoridagi foyda bankning taqsimlangan foyda hisobvarag‘ida taqsimlanmagan holda qoldirilsin.

**“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishining 2018 yil 26 sentabrda 47-sonli bayonnomaga qarori bilan Bank foydasini taqsimlash (yig‘ilish kun tartibidagi 1-masala) yuzasidan quyidagi qarorlar qabul qilindi:**

O‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan 59 000 000 000 (ellik to‘qqiz milliard) so‘m va 2018 yilning birinchi yarim yilligi sof foydasi hisobidan 33 709 975 000 (o‘ttiz uch milliard yetti yuz to‘qqiz million to‘qqiz yuz yetmish besh ming) so‘m, jami 92 709 975 000 (to‘qson ikki milliard yetti yuz to‘qqiz million to‘qqiz yuz yetmish besh ming) so‘m oddiy aksiyalar bo‘yicha har bir aksiyaning nominaliga nisbatan 92,5 foiz yoki 925 so‘m miqdorida dividend to‘lashga yo‘naltirilsin va bank aksiyadorlari reestriga muvofiq ularga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlansin.